

## IX. KICHIK TADBIRKORLIK


2022 yil 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) ning soni 30 837 tani tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,0 foizga o'sgan.

2022 yil yanvar-iyun oylarida 2 417 ta kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 79,0 foizni tashkil etdi.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo (31,0 foiz), sanoat (16,9 foiz), qurilish (5,8 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (14,2 foiz), yashash va ovqatlanish (6,7 foiz) va boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan.

### 2022 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi

(foizda)




**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona  
va mikrofirmalar, birlikda**

	<i>yanvar-iyun 2021 yil</i>	<i>yanvar-iyun 2022 yil</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>3 058</b>	<b>2 417</b>
Buxoro sh.	742	577
Kogon sh.	104	90
<i>tumanlar</i>		
Buxoro	276	205
Vobkent	183	147
Jondor	257	201
Kogon	163	177
Olot	141	83
Peshko'	163	104
Romitan	267	243
Shofirkon	205	140
Qorako'l	185	128
Qorovulbozor	84	59
G'ijduvon	288	263

2022 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahri (577 ta), G'ijduvon (263 ta), hamda Romitan (243 ta), Buxoro (205 ta), Jondor (201 ta), tumanlarida tashkil etildi. Kogon, Jondor, Vobkent tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'satkichni Qorovulbozor (59 ta) tumanida tashkil etilgan.

**2022 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foiz hisobida**




2022 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro shahriga 23,9 foiz, G'ijduvon tumani 10,9 foiz, Buxoro tumani 8,5 foiz, Romitan tumani 10,1 foiz, Jondor tumani 8,3 foiz, Shofirkon tumani 5,8 foiz, Kogon tumani 7,3 foiz, Peshko' tumani 4,3 foiz, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 2,4 foizni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	<i>yanvar-iyun 2021 yil</i>	<i>yanvar-iyun 2022 yil</i>
<b>Jami</b>	<b>3 058</b>	<b>2 417</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	480	344
Sanoat	663	408
Qurilish	218	141
Savdo	941	750
Tashish va saqlash	163	305

	<i>yanvar-iyun 2021 yil</i>	<i>yanvar- iyun 2022 yil</i>
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	208	163
Axborot va aloqa	23	40
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	44	58
Boshqa turdagi xizmatlar	164	208

**Yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foiz hisobida)**




2022 yil 1 iyul holatida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 35,6 birlikda, Buxoro shahrida 29,0 birlikda, Kogon tumanida 20,2 birlikda, Romitan tumanida 17,4 birlikda, Buxoro tumanida 13,2 birlikda va Peshko' tumanida 13,2 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 11,4-9,0 birlik oralig'ida Jondor, Kogon shahar, Shofirkon va Olot tumanlarida aniqlandi. Qorako'l tumanida 8,4 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

**2022 yil 1 iyul holatida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2021 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 13,5 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yil yanvar-iyun oylarida bu ko'rsatkich 14,6 birlikka etdi va 2021 yilning shu davriga nisbatan 1,1 birlik yuqori.

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda;)



**2022 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari**  
**tomonidan:**

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 4371,0 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 37,5 foizi) yoki 2021 yil yanvar-iyunga nisbatan fizik hajm indeksi 107,8 foizni tashkil qildi;

- 11 836,0 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 103,3 foizni (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 99,0 foizi) tashkil qildi;

-5 181,6 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 42,6 foizi) o'zlashtirildi va 2021 yil yanvar-iyunga nisbatan o'sish sur'ati 122,3 foizini tashkil qildi;

- 3 488,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 84,6 foizi) bajarildi va 2021 yil yanvar-iyunga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 foizni tashkil qildi;

-avtomobil transporti yuk aylanmasining 101,8 foizni (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 75,2 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 102,1 foizni (umumiy yo'lovchi aylanmasining 98,0 foizi) tashkil qildi;

- 4 413,6 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 60,0 foizi) 2021 yil yanvar-iyunga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 foizini tashkil qildi;


-chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 82,7 foizi yoki 6 411,4 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 105,6 foizni tashkil qildi) shakllantirildi.

- 85,4 mln.AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 60,3 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2021 yilning mos davriga nisbatan 32,0 mln.AQSH dollarga yoki 59,9 foizga ko'paydi, mos ravishda 253,0 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 60,0 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi, bu esa 2021 yilning mos davriga nisbatan 106,8 mln.AQSH dollarga oshdi.

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>(+-)</i>
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>26 421</b>	<b>28 549</b>	<b>2128</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>3 058</b>	<b>2 417</b>	<b>-643</b>
YAHM	foiz	73,5	72,0	-1,5
Sanoat	foiz	35,1	37,5	3,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	foiz	99,2	99,0	-0,2
Investitsiya	foiz	43,7	42,6	-1,1
Qurilish	foiz	81,4	84,6	3,2
Savdo	foiz	88,1	82,7	-5,4
Xizmatlar	foiz	65,7	60,0	-5,7
Yuk tashish	foiz	91,2	90,6	-0,6
Yuk aylanmasi	foiz	84,1	75,2	-8,9
Yo'lovchi tashish	foiz	93,8	97,0	3,2
Yo'lovchi aylanmasi	foiz	95,7	98,0	2,3
Eksport	foiz	30,4	60,3	29,9
Import	foiz	56,1	60,0	3,9

**2022 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida  
kichik tadbirkorlik ulushining tuzilishi**



**2022 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi**

	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, foizda</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11 836,0	100,0
Sanoat	4 371,0	99,6
Qurilish	3 488,1	38,2
Chakana savdo	4 298,9	55,4




## Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi

(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)


Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (706,0 mlrd.so'm), Shofirkon tumani (679,3 mlrd.so'm), Kogon tumani (616,4 mlrd.so'm) va Jondor tumani (412,0 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Olot (141,4 mlrd.so'm) va Qorovulbozor tumanlarida (77,5 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

### 2022 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Kogon (99,4 foiz), Buxoro (98,4 foiz), Shofirkon (93,0 foiz), Olot (91,3 foiz), Jondor (87,1 foiz) va Vobkent (67,2 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga Romitan (34,9 foiz) va Qorovulbozor (1,6 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**2022 yil yanvar-iyun holatiga jami sanoat mahsulotidagi  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, foiz**




Hududlar bo'yicha ko'proq qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi Jondor (1532,8 mlrd.so'm), Buxoro (1414,2 mlrd.so'm), Qorako'l (1300,9 mlrd.so'm), G'ijduvon (1281,8 mlrd.so'm) va Peshko' (1071,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Kogon (22,8 mlrd.so'm) va Buxoro shaharlarida (143,4 mlrd.so'm) va Qorovulbozor tumanida (342,2 mlrd.so'm) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2022 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (1954,5 mlrd.so'm), G'ijduvon (1222,9 mlrd.so'm), Qorako'l (532,1 mlrd.so'm), Buxoro (484,9 mlrd.so'm) va Jondor (437,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Olot (195,7 mlrd.so'm), Qorovulbozor (102,6 mlrd.so'm va Kogon (109,8 mlrd.so'm) tumanlarida chakana tovar aylanmasi hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2022 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Shahar va tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (1099,6 mlrd.so'm), G'ijduvon (728,9 mlrd.so'm), Buxoro (309,7 mlrd.so'm), Jondor (294,7 mlrd.so'm), Romitan (279,1 mlrd.so'm) va Peshko' (271,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

#### 2022 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati



#### 2022 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi hududlar bo'yicha ulushi, foizda

	Sanoat	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish	Chakana savdo	Xizmatlar
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>37,5</b>	<b>99,0</b>	<b>42,6</b>	<b>84,6</b>	<b>82,7</b>	<b>60,0</b>
Buxoro sh.	54,7	98,6	49,1	91,1	71,2	40,4
Kogon sh.	46,8	95,0	52,6	37,9	98,5	74,6
tumanlar						
Buxoro	98,4	99,8	96,4	96,2	99,6	81,2

	<i>Sanoat</i>	<i>Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi</i>	<i>Investitsiya</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Chakana savdo</i>	<i>Xizmatlar</i>
Vobkent	67,2	99,7	95,3	100,0	62,9	43,2
Jondor	87,1	99,7	85,7	100,0	98,8	74,1
Kogon	99,4	96,2	13,7	84,4	58,9	81,0
Olot	91,3	99,5	42,3	71,7	98,2	87,7
Peshkoʻ	66,5	99,9	95,3	100,0	58,8	68,5
Romitan	34,9	95,9	11,8	75,5	97,9	66,3
Shofirkon	93,0	99,8	84,1	95,2	98,9	76,1
Qorakoʻl	40,1	98,9	59,2	98,1	99,0	77,4
Qorovulbozor	1,6	97,8	44,9	34,2	97,9	59,5
Gʻijduvon	38,4	99,8	88,9	99,9	86,2	79,5

Hududlar boʻyicha sanoat sohasining yuqori ulushini Kogon (99,4 foiz), Buxoro (98,4 foiz), Shofirkon (93,0 foiz), Olot (91,3 foiz), Jondor (87,1 foiz), Vobkent (67,2 foiz) tumanlarida tashkil etadi.


Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Vobkent (95,3 foiz), Buxoro (96,4 foiz), Gʻijduvon (88,9 foiz), Peshkoʻ (95,3 foiz) va Jondor (85,7 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Vobkent (100,0 foiz), Peshkoʻ (100,0 foiz), Jondor (100,0 foiz), Gʻijduvon (99,9 foiz), Qorakoʻl (98,1 foiz) va Buxoro tumanlari (96,2 foiz) tashkil etadi.

Chakana savdoda Qorakoʻl (99,0 foiz), Jondor (98,8 foiz) Shofirkon (98,9 foiz) va Buxoro (99,6 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Olot (87,7 foiz), Buxoro (81,2 foiz) va Kogon (81,0 foiz) tumanlari tashkil etadi.

**2022 yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 yil II-chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 1332 ta respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 37,3 foiz iqtisodiy vaziyatni qulay va 54,5 foiz esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida 45,5 foiz va 48,8 foiz, xizmatlar sohasida 46,0 foiz va 47,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 26,0 foiz va 70,0 foiz, sanoatda 40,5 foiz va 53,0 izni tashkil qilganini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda 6,5 foiz, qurilishda 8,2 foiz, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 4,0 foiz, xizmatlarda 6,6 foiz va savdoda 5,7 foizni tashkil qildi.


### Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash

2022 yil II -chorak uchun, foizda



**Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda** qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida yaxshilanish 44,0 foiz, oʻzgarishsiz 53,0 foiz, yomonlashish 3,0 foiz, sanoat korxonalari yaxshilanishi 54,5 foiz, oʻzgarishsiz 39,5 foizi, yomonlashish 6,0 foiz, savdo yaxshilanish 51,4 foiz, oʻzgarishsiz 44,7 foiz, yomonlashish 3,9 foiz, xizmatlarda yaxshilanish 51,7 foiz, oʻzgarishsiz 44,0 foiz, yomonlashish 4,3 foiz va qurilish sohasida yaxshilanish 53,0 foiz oʻzgarishsiz 43,3 foizi, yomonlashish 3,7 foiz kutilmoqda.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o'zgarishlar  
istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.